

Glossariy:

Zamburug‘lar (fungi yoki mycetes) — eukariot organizmlar dunyosi (bulimi). Tayyor organik moddalar hisobiga yashaydi, ya’ni geterotrof organizm hisoblanadi. Odatda o‘simliklarda, tuproqda, suvda, hayvonlarda yoki ularning qoldiqlarida hayot kechiradi. Oziqlanish usuliga qarab parazit va saprofitga bo‘linadi. Ularning odamlar va hayvonlar uchun zararli va foydali yuz mingdan ortiq turi uchraydi. Zamburug‘lar haqidagi fan mikologiya deb ataladi.

Askomitsetsimonlar, haltachali zamburug‘lar (Ascomycetes) — maxsus xaltachalarda rivojlanib yetiladigan sporalar orqali ko‘payuvchi zamburug‘lar sinfi. 42,000 dan ortiq turi bor. Ba’zi turlari jinssiz yo‘l bilan turli konidial sporalar hosil qiladi.

Sporalar (yun. spora — sochish, sepish, ekish, urug‘) — 1) zamburug‘lar va o‘simliklarda ko‘payish uchun xizmat qiladigan maxsus hujayra. Zamburug‘lar va tuban o‘simliklarda mitoz (mitosporalar), yuksak o‘simliklarda meyoza (meiosporalar) bo‘linish natijasida vujudga keladi.

Achish (bijish) — anaerob sharoitda organik birikmalarni achitish-tiklash transformatsiyaga asoslangan biokimyoviy jarayon.